



Aholi umumiy daromadlari

2018 yilning yanvar-mart holatiga

RAQAMLAR:

- Aholining umumiy daromadlari - **43,2 trln.so'm.**
- Aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati - **110,6 %.**
- Aholi jon boshiga umumiy daromadlari - **1 322,2 ming so'm.**
- Aholi jon boshiga real umumiy daromadlari - **1 102,8 ming so'm.**
- Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati - **108,8 %.**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-mart holatiga aholi umumiy daromadlari 43,2 trln. so'mni, bir kishiga o'rtacha hisoblaganda 1,3 mln. so'mni tashkil etdi.


Real daromadlar nominal daromadlarni chakana narxlar va tariflar o'zgarishini hisobga olgan holda nominal daromadlarning real xarid qilish qobiliyatini ifodalaydi.

Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholining umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 110,6 % ni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 108,8 % ni tashkil etdi.

Aholining umumiy daromadiga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi, hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.



2018 yilning yanvar-mart holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarining hajmi va real o'sish sur'atlari




Aholi umumiy daromadlari

Aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlari bo'yicha Toshkent shahrida (3310,7 ming so'm) hamda Navoiy (2111,4 ming so'm), Buxoro (1414,3 ming so'm) va Toshkent (1403,6 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlari qayd etilganligi kuzatildi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sish sur'ati Xorazm viloyatiga (15,1 %) to'g'ri keladi. Shuningdek, Samarqand (14,4 %), Surxondaryo (13,7 %), Andijon (12,6%), Namangan (10,4 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (9,8 %) aholi jon boshiga umumiy daromad ko'rsatkichlarining real o'sish sur'atlari respublika darajasidan yuqorini tashkil etgan.

Aholining umumiy daromadlari hajmining sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 59,6% ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) va 32,2 % ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.



Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

Aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar sezilarli ulushni tashkil etadi. 2018 yilning yanvar-mart oylari dastlabki ma'lumotlarga ko'ra mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi 59,6 % ni hamda nominal o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan 117,1 % ni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning aholi umumiy daromadlari tarkibidagi bunday ulushi va o'sish sur'ati aholi umumiy daromadlarining 11,6 % ga o'sishini ta'minladi.


Aholi umumiy daromadlari

O'z navbatida, mehnat faoliyatidan olingan daromadlar, yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlardan shakllanadi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida yollanma ishchilarning daromadlari 18,3 % ga oshdi va aholi umumiy daromadlaridagi ulushi 37,0 % ni tashkil etdi.

Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sishi Toshkent shahri (123,0 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (121,9 %), shuningdek, Andijon (121,7 %), Xorazm (120,8 %), Navoiy (120,3 %) va Jizzax (120,2 %) viloyatlarida qayd etildi.

2018 yilning yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati, % da



Aholi umumiy daromadlari


Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi daromadlarga xodimlarga hisoblangan ish haqi, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan barcha to'lovlar, kompensatsiya to'lovlari va ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash kiradi. Shuningdek, mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi daromadlarga ommaviy axborot vositalari xodimlariga to'lovlar, ratsionalizatorlik takliflari uchun va mualliflik huquqiga ega bo'lmagan shunga o'xshash mukofotlar kiradi.

Shuningdek, mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning keyingi asosiy manbai mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar hisoblanadi. Mazkur sohaga asosan aholining iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati kiradi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 115,2 % ni tashkil etdi. Aholi umumiy daromadlari hajmida ushbu daromad manbai katta ahamiyatga ega bo'lib, uning ulushi 22,6 % ni tashkil etdi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar egallagan ulushiga ko'ra aholi jami daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o'sishi umumiy daromadlar hajmining 0,26 % ga o'sishiga olib keladi.

Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi, % da



Aholi umumiy daromadlari


Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi turlicha va 12,3 % dan (Toshkent shahrida) 30,9 % gacha (Toshkent viloyatida) o'zgarib turadi. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning uchdan bir qismi (33,5 %) Toshkent (12,7 %), Samarqand (10,5 %) viloyatlari va Toshkent shahri (10,3 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar

Shuningdek, aholining daromad manbalaridan biri bu mol-mulkdan olingan daromadlar hisoblanadi. 2018 yilning yanvar-mart oylari dastlabki yakunlariga ko'ra, aholining mol-mulkdan olgan daromadlari 2,4 trln.so'mni tashkil qildi. 2017 yilga nisbatan o'sish sur'ati esa 139,5 % ni tashkil etdi. Aholining umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar, o'z navbatida, foizlar, dividendlar, mualliflik haqi va boshqa mulkiy daromadlardan iborat.

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibi, % da



Aholi umumiy daromadlari

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida boshqa mulkiy daromadlar asosiy ulushga ega bo'lib, uning ulushi 52,9 % ni tashkil qildi. Keyingi o'rinlarda dividendlar - 35,4 % ni, obligatsiyalar, depozitlar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar va mualliflik haqi - 11,7 % ni tashkil qildi.


Aholi umumiy daromadlari hajmining o'zgarishiga mol-mulkdan olingan daromadlarning ta'siri juda kam. Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining 2,1 % ga o'sishini ta'minladi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 70,6 % ni tashkil etdi. Keyingi yuqori ulushga ega bo'lganlari Toshkent (6,2 %), Samarqand (3,8 %) va Farg'ona (3,7 %) viloyatlari hisoblanadi.

Transfertlardan olingan daromadlar

Aholining umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlar ham muhim ahamiyatga ega. 2018 yilning yanvar-mart oylari dastlabki ma'lumotlarga ko'ra o'tgan yilning mos davriga nisbatan transfertlardan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 177,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 8,2 % punktga oshdi va 32,2 % ni tashkil etdi. Joriy davrda ijtimoiy transfertlarning o'sish sur'ati 120,2 % ni tashkil etdi.

Ijtimoiy transfertlarning turlari bo'yicha o'sish sur'ati, % da




Aholi umumiy daromadlari

Ijtimoiy transfertlarning o'sishiga uning tarkibida asosiy ulushga, ya'ni 83,9 % ga ega bo'lgan pensiyalar ta'sir ko'rsatdi. 2017 yil mos davri ma'lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o'sish sur'ati 119,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan davr mobaynida pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlarining 3,2 % ga o'sish imkonini berdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, 2018 yil yanvar-mart oylari dastlabki ma'lumotlarga ko'ra aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 47,7 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi, % da



Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar Surxondaryo (51 %), Jizzax (50,7 %), Xorazm (50,3 %), Samarqand (49,7 %), Toshkent (49,3 %), Namangan (48,7 %) viloyatlari hamda Toshkent shahrida (50,4 %) sezilarli ulushni egalladi.

Davlat statistika qo'mitasi
Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari
statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Hakimov
(71) 230-81-66